



ADABIYOTSHUNOSLIK MAVZUIDAGI POLEMİK MAQOLALARNING MATBUOTDA YORITILISHI

E'tiqodxon Ataqulova
"Inson huquqlari va media"
kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya : Ushbu maqolada matbuotda ilk polemik maqolalarning paydo bo'lishi borasida so'z boradi. Jumladan, adabiyotshunoslik borasida kechgan bahslarning matbuotda yoritilishi borasida tahlil qilinadi. Shu bilan birga davriy nashrlarda yoritilayotgan polemik maqolalari obyektivi jihatidan tasniflanadi.

Kalit so'zlar: polemika, plyuralizm, polemist, adabiyotshunoslik, bahs, matbuot, munozara, tortishuv.

Аннотация: В данной статье говорится о появлении первых полемических статей в прессе. В частности, он будет проанализирован с точки зрения освещения в СМИ прошлых дискуссий по литературоведению. При этом полемические статьи, публикуемые в периодической печати, классифицируются по предмету.

Ключевые слова: полемика, плюрализм, полемист, литературоведение, дискуссия, пресса, дискуссия.

Annotation: This article talks about the appearance of the first polemical articles in the press. In particular, it will be analyzed in terms of media coverage of past debates in literary studies. At the same time, polemical articles published in periodicals are classified by subject.

Key words: controversy, pluralism, polemicist, literary criticism, discussion, press, discussion.

Polemik maqolalar odatda jamiyatning biron bir sohasida, muayyan muammo atrofida bahs-munozara, tortishuvlar, xilma-xil fikrlar (plyuralizm) paydo bo'lganda matbuot yuzini ko'radi. Polemik maqola muallifi raqibning pozitsiyasini rad etishga va o'zining dalillarini isbotlashga, tasdiqlashga intiladi. Shuning uchun polemist¹ isbotlash va rad etish san'atiga ham ega bo'lishi kerak². Jamiyatda paydo bo'lgan illatlar va muhokamali mavzularda, turli fikrlar to'qnashuvida, qarama-qarshiliklarda bahs tug'iladi. Unda har kim o'z fikrini to'g'riligini isbotlashga uringanidek davriy nashrlarda ham chop ettirilgan munozarali maqolalarda mualliflar o'z pozitsiyasini himoya qilgan holda bahsga kirishadi. O'zbek matbuotida munozarali maqolalarni paydo bo'lishi bevosita gazetalarning paydo bo'lish tarixi bilan bog'liq.

¹ Polemikaga kirishgan shaxs.

² Тертыйный А.А.. Жанры периодической печати: учебное пособие: -М.: Аспект Пресс, 2000.





B.Do'stqorayevning fikricha, o'zbek milliy matbuotida polemik maqolalar XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida "bahs", "munozara", "tortishuv", "jarayon" ruknlari ostida davriy nashrlarda paydo bo'la boshlagan³. Tadqiqotchi X.M.Ahadova matbuotdagi bahslarning paydo bo'lishi 30-40 yillarga borib taqalishini aytadi. Biroq Sobiq sho'rolar ittifoqi davrida matbuotda chop etilgan bahslarda kimlarningdir qayerdadir so'zlagan nutqlari bilan boshlanib, "sotsialistik" realizm degan shpargalka-etalon asosida olib borilar va davlatning siyosat quroliga aylantirilgan edi. Hurfikrlilik, shaxsiy qarash to'g'risida mutlaqo gapirish mumkin emas edi⁴, - deb keltiradi. Ahmadjon Meliboyev o'zining "Qirq beshinchi bekat" nomli kitobida *"Sobiq tuzum o'zining qabih niyatlarini amalga oshirishda matbuotdan qurol sifatida unumli foydalandi. Matbuotga odamlarning taqdirini hal qilish, jamiyat hayotidagi ko'pgina masalalar yuzasidan uzil-kesil hukm chiqarish huquqi berilgandi. Tanqidiy mulohazaga mulohaza bilan javob qaytarish, ishdagi kamchiliklarning sabablarini izohlab berish u yoqda tursin, bu haqda hatto o'ylashning o'zi shakkoklik edi. "Pravda" nashri tanqid qildimi, bas, boshqa gapga o'rin qolmasdi. Sho'rolar jamiyati matbuotni ataylab shunday soxta maqomga ko'targan edi. Soxta deyayotganimizning boisi shuki, bir qarashda OAV katta kuchga, ta'sirchan vositaga egaday tuyulsa-da, aslida uning mustaqil fikri mutlaqo yo'q edi"*⁵, deb keltiradi. Mustaqilligimizning eng katta yutug'i ham jamiyatda har bir insonning fikr va so'z erkinligiga keng yo'l ochib berilganidadir. Demak, bahslar jamiyatda so'z va matbuot erkinligining takomillashishi bilan bog'liq. O'zbek matbuoti tarixida tortishuvli jarayonlar bevosita jadid matbuoti bilan bog'liq. Jadid namoyondalarining har bir harakatida munozara, tortishuv, chorlov kabi g'oyalar aks etgan. XX asr boshida ilg'or o'zbek ziyolilari jadid maktablarini tashkil etish, xotin qizlarni savodli qilish, jadid ziyolilari uchun eski usuldagi maktablarni isloh etish, badiiy adabiyotni yangi o'zanga solish, teatr sahnasini ibratxonaga aylantirish, til haqida, to'ylardagi isrofgarchiliklar, yoshlarning ilmi bo'lishligi, matbuotning ravnaqi borasida davriy nashrlarda bahslar va qizg'in muhokamarlar bo'lgan. Jadidlardan keyingi davrdagi davriy nashrlardagi bahsli

³ B.Do'stqorayev. O'zbekiston jurnalistikasi tarixi. -Toshkent. G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. -B.341

⁴ <https://fayllar.org/buoro-davlat-universiteti-uzuridagi-ilmij-daraja-beruvchi-phd.html?page=8> (мурожаат санаси 12.10.2023)

⁵ Meliboyev Ahmadjon. Qirq beshinchi bekat. Kundalik - esse. T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi, 2008 y. B. 113.





maqolalar adabiyotshunoslik va adabiy tanqidchilik mavzularida bo'lgan. Adabiyotda bahs alohida janr sifatida o'rganiladi. XX asrning 70-yillarida "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalida "Munozara" "Munozara va muhokama" ruknlarida adabiy mavzularidagi bahslar chop etilgan. Jumladan, "Gul va Navro'z" asarining muallifi masalasida ko'tarilgan bahsda adabiy tanqidchilarning (Y.Ishoqov, A.Rustamov, E.Fozilov, S.Erkinov) muhokamali maqolalari davriy nashrlarga ham ko'chgan⁶. Tadqiqotchi N. Qodirova, bahsni tanqidchining ilmiy-nazariy saviyasi, dunyoqarash va konsepsiyasi muhim ahamiyat kasb etadigan adabiy tanqid janrlaridan biridir, deb keltiradi. Adabiyotda bahs janrida ko'pincha, badiiy asar yoki aniq bir mavzu obyekt qilib olinadi va boshqa maqolalardan farqli ravishda bahs davomida qarashlar kengaytiriladi, fikrlar xilma-xilligi oshib boradi, ba'zan rad etiladi, ba'zan qo'llab-quvvatlanadi⁷. Adabiy bahsning vazifasi esa adabiyotdagi ma'lum bir muammo yoki bahsga sabab bo'lgan badiiy asar bo'yicha ikki yoki undan ortiq adabiyotshunoslar munozara yuritishidan iborat. Ba'zan bahsli bir adabiy muammo o'rtaga tashlanadi va unga munosabatlar, fikrlar rang-barangligi turlicha kechadi. Masalan, Sh.Xolmirzayevning "Adabiyot o'ladimi?" bahsli maqolasi yuzasidan o'nlab unga javoban maqolalar yuzaga kelgan. Ko'rinadiki, bahs janri ham maxsus vazifalarga ega, aniq ijtimoiy-estetik mohiyatga yo'naltiriladi, uning o'ziga xos xususiyati muayyan adabiy hodisaning adabiy jarayondagi mavqeini baholashiga qarab belgilanadi. Shu jihatdan qaraydigan bo'lsak, o'zbek tanqidchiligida ko'plab bahslar yozilganini ko'rish mumkin⁸. Bu kabi bahsli maqolalar "Bahs", "Bir asar xususida ikki xil fikr", "Munozara", "Fikr" kabi ruknlarda matbuotda gavalangan. S.I. Povarnin matbuotdagi bahs-munozaralarning quyidagi xususiyatlarini ta'kidlaydi:

*dalillanganlik,

*o'qishni kechiktirish imkoniyati bilan bog'liq davomiylik (ya'ni ma'lum muddati yo'qligi);

⁶https://www.google.co.uz/url?sa=t&rct=j&q=&esrc=s&source=web&cd=&cad=rja&uact=8&ved=2ahUKEwiY39_Zjf uBAxVTRPEDHcDNB0IQFnoECAgQAQ&url=http%3A%2F%2Ffayllar.org%2Fbuhoro-davlat-universiteti-uzuridagi-ilmij-daraja-beruvchi-phd.html%3Fpage%3D8&usg=AOvVaw3yTIDs8K8XPWF4XsWVVKUE&opi=89978449 (murojaat sanasi: 16.10.2023)

⁷ <https://fayllar.org/buhoro-davlat-universiteti-uzuridagi-ilmij-daraja-beruvchi-phd.html?page=8> (murojaat sanasi 12.10.2023)

⁸ M.A.Xudoyqulova. O'zbek tanqidchiligida bahs: tabiati va taraqqiyoti. [Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi phD \(fayllar.org\)](https://fayllar.org/buxoro-davlat-universiteti-huzuridagi-ilmij-daraja-beruvchi-phd)





*e'tirozlarning to'g'ri bildirilishi⁹.

Matbuotda yoritilayotgan polemik maqolalar obyekt, tortishuv turi, shakli jihatidan har xil bo'lishi mumkin. Masalan, obyekt nuqtai nazaridan qaraganda:

- Adabiy-nazariy muammolar obyekt qilib olingan bahslar:

Bunga she'riyatdagi obrazlilik, konflikt masalalarini, adabiy tanqidchilik, adabiyotdagi ba'zi muammolar bo'yicha U.Normatov, N.Xudoyberganov, E.Ochil, B.Ro'zimuhammad, Sh.Subhon va boshqa tanqidchilar tomonidan yozilgan polemik maqolalar "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida maxsus "Bahs", "Bir asar haqida ikki xil fikr", "Jarayon" ruknlari ostida chop etilgan¹⁰. Ayniqsa, gazetaning o'tkan asrning oxirgi o'n yilligida istiqloq davri adabiyotining qanday bo'lishi kerakligi haqida boshlangan bahs 1991-1995 yillarda muntazam yoritilib borildi¹¹.

- Aniq bir badiiy asar obyekt sifatida olinib, uning chop etilishi bilan bog'liq bahslar. Abdulla Qahhorning "Sarob", Oybekning "Qutlug' qon", Nurali Qobulning "Unutilgan sohillar"¹² kabi asarlar ustida yozilgan maqolalar ko'proq munosabat shaklida bo'lib, asar haqida fikr uyg'otish g'oyasi ustun bo'ladi. 1920-yillarda matbuotda "Guldastai adabiyot" she'riy to'plami muallifi ustida qizg'in bahs avj oladi. Kitobda tarjima she'rlar tagida, kotibning xatosi bilan, she'r muallifining nomi tushib qolgan bo'lib, Hoji Muinning she'rlari tagida "Mehriy" taxallusi qo'yilgan. Mana shu xato tufayli Hoji Muin adabiyot o'g'risi sifatida ayblanadi. Hatto "Turkiston" gazetasida Nazrullo Haydariy imzosi bilan "Adabiyot o'g'risi" sarlavhasi ostida maqola ham chop etiladi¹³. Ma'lum muddatdan so'ng, Nazrullo Haydariy matbuotda raddiya bilan chiqib, bu maqolaga aloqasi yo'qligini, maqola muallifi Abdumo'min Sattoriy ekanligini aytgan¹⁴. Hoji Muin va A. Sattoriy o'rtasidagi o'zaro tortishuv va achchiq so'zlar matbuotda e'lon qilingan. Hoji Muin Sattoriyga ta'lim berganini, Sattoriy esa uni ustoz deb tan olmasligini aytadi, ular bir-biriga har xil ayblar qo'yishadi. Matbuotda e'lon qilingan "Yangi gap" sarlavhali maqolada Hoji Muinni

⁹ Поварнин С.И. Искусство спора: о теории и практике спора / С.И. Поварнин. 2-е изд. – Пг.: Культурно-просветительское товарищество «Начатки знаний», 1923. – 128 с.

¹⁰ M.A.Xudoyqulova. O'zbek tanqidchiligida bahs: tabiati va taraqqiyoti. [Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD \(fayllar.org\)](http://buxoro.davlat.universiteti.uz/ilmij-daraja-beruvchi-phd-fayllar.org)

¹¹ N.Toshpo'latova. Tahliliy jurnalistika. "Bayoz", 2019 yil. 114 bet.

¹² M.A.Xudoyqulova. O'zbek tanqidchiligida bahs: tabiati va taraqqiyoti. [Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD \(fayllar.org\)](http://buxoro.davlat.universiteti.uz/ilmij-daraja-beruvchi-phd-fayllar.org)

¹³ "Turkiston" gazetasi. 1923-yil 5-fevral.

¹⁴ Nazrullo Haydariy. "To'g'ri emas" // "Turkiston" gazetasi. 1923-yil 17-fevral.





yoqlab S. imzoli muallif bahsga aralashadi. Va arzimagan gaplar bilan dunyo buzmoq yaxshi emas¹⁵- deb bahsga yakun yasaydi. Mana shundan keyin A. Ismoilzoda, Vadud Mahmud, Zehniylar a'zolidida tuzilgan komissiya "bu risolada o'g'riliq bo'lmag'onig'a qaror berdi"¹⁶. «Guldastai adabiyot» Hoji Muin tomonidan tuzilgan yagona she'riy to'plam sifatida tan olindi¹⁷.

- Gazetalar tomonidan o'rtaga tashlanadigan bahsli masalalar (ular har xil mavzuda bo'ladi) obyekt bo'lishi mumkin. Bu kabi bahslarda yosh va mavqei jihatdan barcha ishtirok etishi uchun mo'ljallangan tortishuvlar bo'lib, soha mutahassislari bilan gazetxonlar ham bahslashishi mumkin bo'ladi. Polemikada yosh va mavqei jihatidan qat'iy nazar har bir inson o'z fikrini bildirishi, bahsga aralashishi mumkin. Shu jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, so'z va fikr erkinligining yaqqol namunasini polemik maqolalarda aks etadi.

- Bahslashuvchiga javob tarzida yoziladigan bahsli maqolalar polemikada makon tanlamasligi bilan ahamiyatlidir. Matbuotda bu kabi maqolalar qachonki fikrlar va faktlar to'qnashuvi vujudga kelganda paydo bo'ladi. Misol uchun, 2009 yil "Tafakkur" jurnalining 1-sonida publitsist Zuhridin Isomiddinovning "Sarkash savollar" sarlavhali maqolasi chop etilgan. Ushbu maqolani fikr ustuniga tayanib yozilgan deya olamiz. Muallif uzoq yillar davomida o'zini o'ylantirib kelgan "Hayotning ma'nosi nima?", "Inson kim uchun yashaydi?", "O'lgan odam keyin qanday tiriladi?", "Yashashning mazmun-mohiyati, mantig'i nimadan iborat?" kabi sarkash savollarni ommaga olib chiqadi. Muallif fikrining isboti sifatida shaxsiy kechinmalariga, mutafakkirlarning va diniy kitoblarga tayanadi. Taqqoslashlar, o'xshatishlar, qiyoslash orqali fikrini ifodalaydi. Shu jurnalning keyingi sonlarida "Sarkash savollar"ni muhokamaga tortgan ikki muallifning, ya'ni professor Mansurxon Toirovning "Savol muhimmi, yoki javob"¹⁸, Abdurahim Erkayevning "Fan bilan dinni "birlashtirishga" ehtiyoj bormi?"¹⁹ sarlavhasi ostida muhokamali maqolasi nashr etiladi. Aynan shu jarayonda bahsning boshlanganini ko'rish mumkin.

¹⁵ S. "Yangi gap" // "Turkiston" gazetasi. 1923-yil 7-fevral. N.Q.Namozova "Hoji Muinning publitsistik va muharrirlik faoliyati" filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya, 2005. B.26.

¹⁶ "Taftish va muhokama" // "Turkiston" gazetasi. 1923-yil 18-fevral. N.Q.Namozova "Hoji Muinning publitsistik va muharrirlik faoliyati" filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya, 2005. B.26.

¹⁷ N.Q.Namozova "Hoji Muinning publitsistik va muharrirlik faoliyati" filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya, 2005. B.26.

¹⁸ Mansurxon Toirovning "Savol muhimmi, yoki javob"²⁷ ("Tafakkur" jurnali, 2009 - yil #3)

¹⁹ Abdurahim Erkayevning "Fan bilan dinni "birlashtirishga" ehtiyoj bormi?"²⁸ ("Tafakkur" jurnali, 2009, #4)





Polemikada uchinchi shaxsning aralashuvi muhim sanaladi va bu haqiqiy ma'nodagi bahsni boshlashga asos bo'ladi. Aynan bu mavzuga Abdurahim Erkayev "Fan bilan dini birlashtirishga ehtiyoj bormi?" sarlavhali maqolasi bilan bahslashadi. U yuqoridagi ikki maqola muallifini "din va fan orasida andak ovora bo'lib qolgan kishilarning "iqronomasi"ga o'xshatadi²⁰. Ahamiyatli tomoni ushbu bahsga oradan o'n yil o'tib jurnalist Mirzo Kenjabekning ishtirokini ko'rish mumkin. M.Kenjabek "Yoshlarga dil so'zlarim"²¹ nomli kitobida "Jaholatning chegarasi bormi?" nomli maqolasi bilan bundan o'n yil oldingi bo'lgan bahsga aralashgan. Shu jarayonda polemikada makon va zamon mezonlarining kesishuvi ahamiyatsizligi o'z isbotini topgan. Muallif bu bilan fikrga qarshi fikr, shaxsiy mulohaza, qarash bilan javob qaytaradi. Polemik maqolalarda faktning o'rniga fikr, taxmin yoki baho berish hollari ham kuzatiladi. Vaholanki, jurnalistikada fakt bo'lib o'tgan voqelik haqida qat'iy bilim, o'zgarmas ma'lumot ekanligini unutmaslik lozim²². Baho faktga munosabat, ya'ni bo'lib o'tgan voqeaning kim uchundir yaxshi yoki yomon ekanligini tasdiqlashdir. Taxmin esa o'rganilayotgan yoki muhokama qilinayotgan mavzuda faktning borligi yoki yo'qligiga nisbatan taxminiy munosabat, aniq bo'lmagan bilimdir. Fikr faktga xos manbalarni ham, turli ko'rinishdagi taxminlarni ham o'z ichiga oladi²³. Publitsist Z.Isomiddinov Mirzo Kenjabekning "Jaholatning chegarasi bormi?" maqolasidan xabar topgach fikrga qarshi fikrga amal qilib navbatdagi "Taqvo namoyish bo'lmasin"²⁴ sarlavhali maqolasini chop etadi. Bu maqola murojaat shaklida bo'lib, fikrga qarshi fikr, munosabat bildirilgan.

- Gazeta va jurnallarda ba'zi muammolar munosabati bilan tashkil etiladigan bahslar. Davriy nashrlarda bu kabi bahslar davra suhbatini ko'rinishida aks etadi. Jumladan: "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi A.Otaboyev bir guruh publitsistlar ishtirokida (Suvon Meli, Nusratullo Jumaxo'jayev, Saydi Umirov, Bahodir Karimov, Nurboy Jabborov) "Adabiy tanqid: bugun va ertaga" sarlavhali maqolasini²⁵, XX asrning 80-yillari oxirida "Zamon- dramaturgiya -teatr", "Badiiy nasr tili va davr" mavzuidagi davra suhbatidan kelib chiqqan bahslarni, "Sharq

²⁰ O'sha manba.

²¹ M.Kenjabek "Yoshlarga dil so'zlarim". - T.: Adabiyot, 2021

²² Nazira Qurbon. Tahliliy jurnalistika: o'quv qo'llanma.-T.: Bayoz, 2019. B.114.

²³ O'sha manba.

²⁴ Taqvo namoyish bo'lmasin. Z.Isomiddinov. "Bilmaganlarimiz to'g'risida bilganlarimiz" T.: A.Navoiy nomidagi Milliy kutubxona. 2021-yil.

²⁵ A.Otaboyev. Adabiy tanqid: bugun va ertaga. "O'zAS" gazetasi 2015-yil, 41-son.





yulduzi” jurnalida yozuvchi P. Qodirovning “Erk” qissasi to‘g‘risida bahsli maqolalar²⁶ni ko‘rishimiz mumkin. A.Tertechniy "Janri periodicheskiy pechati" nomli o‘quv qo‘llanmasida bosma ommaviy axborot vositalaridagi bahsning zaif pozitsiyasini ham ta’kidlaydi – o‘quvchi har doim ham jurnalist bahslashayotgan materialni ko‘z o‘ngida ko‘ravermaydi. Bunda polemik matnning o‘zi go‘yo monologlashtirilgan bo‘ladi. Bu o‘quvchida savol uyg‘otishi mumkin²⁷.

Polemistning maqsadi odatda ikki xil bo‘ladi:

Birinchidan, u o‘z vazifasini bajarish davomida – munozarali masala bo‘yicha o‘z pozitsiyasini asoslab, muammo haqidagi tasavvurini, uning paydo bo‘lish sabablarini, ahamiyatini, uni hal qilish usullarini ko‘rsatish;

Ikkinchidan, raqibining pozitsiyasini asosli ravishda rad etgan holda, o‘z nuqtai-nazarini asoslab berish²⁸.

Jurnalist yoritayotgan muammo yuzasidan gohida noto‘g‘ri xulosa berishdan cho‘chib yoki yechim topishga qiynalayotgan vaziyatda odatda bahs o‘tkazish, shu muammo yuzasidan boshqalarning shaxsiy fikr-mulohazalarini bildirishlariga imkon yaratadi. Sababi bahslashish orqali turli qarashlar, nuqtai nazarlar to‘qnashadi. Oxir oqibatda jamoa fikri hosil bo‘ladi. Zero, bahslardagi me‘yor va etikaga rioya qilishlik, adolatli haqiqatga yetaklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.Do‘stqorayev. O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi. -Toshkent. G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009 y.
2. Meliboyev Ahmadjon. Qirq beshinchi bekat. Kundalik - esse. T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi, 2008 y.
3. N.Toshpo‘latova. Tahliliy jurnalistika. "Bayoz", 2019 yil.
4. Тертычный А.А.. Жанры периодической печати: учебное пособие: -М.: Аспект Пресс, 2000 г.
5. Поварнин С.И. Искусство спора: о теории и практике спора / С.И. Поварнин. 2-е изд.–Пг.:Культурно-просветительское товарищество «Начатки знаний», 1923.
6. Z.Isomiddinov. Bilmaganlarimiz to'g'risida bilganlarimiz. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonaso nashriyoti. T.: 2021.
7. "Turkiston" gazetasi. 1923-yil 5-fevral.

²⁶ O'sha manba.

²⁷ A.A.Тертычный. Жанры периодической печати: учебное пособие: -М.: Аспект Пресс, 2000.

²⁸ O'sha manba.





8. Mansurxon Toirovning "Savol muhimmi, yoki javob"27 ("Tafakkur" jurnali, 2009 - yil #3)
9. Abdurahim Erkayevning "Fan bilan dini "birlashtirishga" ehtiyoj bormi?"28 ("Tafakkur" jurnali, 2009, #4)
10. Abdurahim Erkayevning "Fan bilan dini "birlashtirishga" ehtiyoj bormi?"28 ("Tafakkur" jurnali, 2009, #4)
11. M. Kenjabek "Yoshlarga dil so'zlarim". - T.: Adabiyot, 2021
12. A. Otaboyev. Adabiy tanqid: bugun va ertaga. "O'zAS" gazetasi 2015-yil, 41-son.

